



Lexical-grammatical features of compound insertions

Shokhida DAVLETOVA¹

Urgench State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

10 February 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

25 March 2025

Keywords:

allel compound insertions,
non-parallel compound
insertions,
attributive compound
insertions,
complementary compound
insertions,
adverbial compound
insertions.

ABSTRACT

This article analyzes parenthetical constructions that are introduced into the content of a sentence or the meaning of its individual parts during speech, establishing logical-semantic relationships with the sentence. The structural types of these compound parenthetical constructions are examined. Additionally, the article provides a detailed description of how compound parenthetical elements are expressed in sentences through free and fixed phrases, as well as their lexical and grammatical features.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss3/S-pp329-332>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Birikma-kiritmalarning leksik-grammatik xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

parallel birikma-kiritmalar,
noparallel birikma-
kiritmalar,
aniqlovchi birikma-
kiritmalar,
to'ldiruvchi birikma-
kiritmalar,
hol birikma-kiritmalar.

Mazkur maqolada kiritma konstruksiyalar gap mazmuniga yoki uning ayrim bo'laklari ma'nosiga nutq jarayonida kiritilib, gap bilan logik – semantik jihatdan munosabatga kirishishi va ularning struktur jihatdan birikma kiritma turlari tahlil qilingan. Shuningdek, birikma kiritmalarning gapda erkin va turg'un birikmalar orqali ifodalanishi va ularning leksik-grammatik xususiyatlari ham batafsil yoritilgan.

¹ PhD student, Urgench State University. E-mail: shoxidadavletova0@gmail.com

Лексико-грамматические особенности вводных конструкций

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

параллельные вводные конструкции,
непараллельные вводные конструкции,
определительные вводные конструкции,
дополнительные вводные конструкции,
обстоятельственные вводные конструкции.

В данной статье анализируются вводные конструкции, которые вводятся в содержание предложения или в значение его отдельных частей в процессе речи, вступают в логико-семантические отношения с предложением, а также рассматриваются их структурные типы в виде словосочетаний. Кроме того, подробно освещаются способы выражения вводных словосочетаний в предложении посредством свободных и устойчивых словосочетаний, а также их лексико-грамматические особенности.

KIRISH

Kiritmalar tuzilishiga ko'ra turli-tumandir. Kiritma konstruksiyalarning barcha struktur tiplarini aniq belgilab, ularning har bir turini tahlil qilish, umumiy va xususiy jihatlarini qiyoslash asosidagina mazkur sintaktik kategoriyaning asosiy belgilarini ochib berish mumkin. Kiritma konstruksiyalarning birikma-kiritma turlari ushbu maqolada tahlil qilinadi. Birikma-kiritmalar sodda so'z birikmalari orqali ham, murakkab qo'shma so'z birikmalari orqali ham ifodalanishi, shuningdek, uyushgan holda va alohida so'z yoki gap bilan birgalikda qo'llanishi mumkin. Bunda kiritma vazifasida qo'llangan birlik erkin yoki turg'un so'z birikmalaridan iborat bo'ladi. Ammo turg'un so'z birikmalarining kiritma vazifasida qo'llanishi juda kam uchraydi. Frazologik iboralar yolg'iz holda kiritma vazifasida umuman ishlatilmaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi birikma kiritmalarning turlari va leksik-grammatik xususiyatlari badiiy adabiyotlardan olingan misollar bilan yoritildi. Tadqiqot uchun zarur ma'lumotlarning ilmiy bayoni tavsifiy yo'l bilan berildi. Tadqiqot oldiga qo'yilgan asosiy muammoning aniq yechimi chog'ishtirish metodi orqali belgilab olindi.

NATIJA VA MUHOKAMA

So'z birikmalari orqali ifodalangan kiritmalar so'z-kiritmalarga nisbatan ko'proq qo'llanadi. Birikma-kiritmalar ko'p jihatdan so'z-kiritmalarga o'xshaydi. So'z birikmalari ham tushuncha ifodalash birligi sanalib, odatda, nominativ funksiyani bajaradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ko'pchilik ishlarda so'z va birikma-kiritmalar birgalikda olib tekshiriladi. To'g'ri, so'z va birikma-kiritmalarni alohida-alohida o'rganish ayrim takrorlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Lekin so'z va birikma-kiritmalar o'rtasida qator umumiy xususiyatlar bo'lishiga qaramay, ular bir-biridan farq ham qiladi. Shunga ko'ra, birikma-kiritmalarni ham so'z-kiritmalar kabi 2 guruhga – parallel va noparallel tiplarga ajratish mumkin.

Parallel birikma-kiritmalar. Bu guruhga kirgan birikma-kiritmalar funksiyasi, o'rni va izohlanayotgan gap bo'lagining paralleli bo'lib kelishi va boshqa jihatlariga ko'ra parallel so'z-kiritmalardan uncha farq qilmaydi. Faqat parallel birikma-kiritmalar ko'pincha asosiy gap ichidagi biror so'z yoki so'z birikmasi ma'nosini tasviriyo'l bilan izohlaydi, aniqlashtiradi. Shunga ko'ra ular o'zlari izohlayotgan so'zga leksik jihatdan sinonim, dublet bo'la olmaydi.

Soʻz maʼnosini tasviriy yoʻl bilan (birikma-kiritmalar orqali) izohlash, odatda, izohlanayotgan soʻzning, terminning leksik varianti, ekvivalenti boʻlmaganda amalga oshiriladi.

Har qishloq va har mahalla oʻzida boʻlgan ot-arava, ulov va mardikorlarni “begor” (majburiy hashar) tariqasida binokorlik uchun safarbar qildi (Gʻ. Gʻulom).

Iskandar usti yopiq, gʻildirakli taranlar (uchiga temir qoplangan uzun yogʻochlar) yasattirdi (M. Osim).

Noparallel birikma-kiritmalar. Bu guruhdagi birikma-kiritmalar oʻzlari aloqador gap boʻlagiga nisbatan semantik jihatdan ham sintaktik jihatdan ham parallel boʻla olmaydi. Ular, odatda, biror gap boʻlagi maʼnosini izohlamay, balki ular bilan bogʻliq qoʻshimcha maʼlumot, yordamchi fakt orttiradi. Narsa-predmetlar oʻrtasidagi munosabatni, ularning belgisi, xarakterini, harakatning qay holda yuzaga kelishini, daraja va holatini koʻrsatadi. Shaxsning xarakteri, kasbi, mashgʻuloti, unvoni kabi jihatlari, fikrning kimga qarashli ekanligi haqida axborot beradi. Qoʻshimcha maʼlumot orttiruvchi bunday noparallel birikma-kiritmalar izohlanayotgan gap boʻlagi bilan bir xil morfologik belgiga ega boʻlmaydi.

Nihoyat “tinch tirikchilik qilish” maqsadida hozirgi turgan qishlogʻiga kelib, uzoqroq tanishi (ona avlodidan) Doʻrmonboy degan oʻrtahol bir dehqonning koʻmagiga qoʻl choʻzdi (H. Shams).

Uchqun Odilov (shaxmat chempioni) oʻyinda qanday yutganini hikoya qildi (M. Mirzayev).

Birikma-kiritmalar izohlanayotgan gap boʻlagiga nisbatan gapning bir boʻlagi (aniqlovchi, toʻldiruvchi, hol) vazifasida kelishi mumkin.

Aniqlovchi birikma-kiritmalar. Aniqlovchi birikma-kiritmalar ham sodda yoki murakkab (qoʻshma) soʻz birikmalari tarzida kelib, biror gap boʻlagiga aloqador qoʻshimcha maʼlumotlarni ifodalaydi. Ular koʻproq shaxsning kasbi, unvoni, ijtimoiy holati, xarakteri, millati kabi belgi-xususiyatlarni anglatadi. Bunday kiritmalar ham soʻz-kiritmalardagidek qaratqich aniqlovchilar orqali ifodalanmaydi, balki koʻproq qaratqichli soʻz birikmalari (qaratqich aniqlovchi – aniqlanmish turidagi) orqali ifodalanadi.

Uning xotini (maxsumning onasi) sal ilgariroq qazo qilgan ekan (Gʻ. Gʻulom).

Ayubi Xalif (afsonaviy paygʻambar) uyining burchagida toatga mashgʻul edi (M. Sobirov).

Toʻldiruvchi birikma-kiritmalar. Toʻldiruvchi birikma-kiritmalar ham toʻldiruvchi soʻz-kiritmalar kabi kam qoʻllanadi. Fikr bayon qilish uchun toʻldiruvchi boʻlaklarning boʻlishi koʻpincha zarur shart hisoblanadi. Bu kiritmalarning toʻldiruvchi boʻlak vazifasida qoʻllanishi qiyinligini koʻrsatadi. Chunki kiritmalarga xos asosiy xususiyat yoʻl-yoʻlakay izoh va qoʻshimcha maʼlumot bayon qilishdan iborat. Shunga koʻra noparallel birikma-kiritmalar vositasiz toʻldiruvchi vazifasida qoʻllanmaydi. Ular vositali toʻldiruvchi vazifasida ayrim hollardagina qoʻllanishi mumkin. Buni vositali toʻldiruvchilarga xos xususiyat “harakatga boshqa biron yoʻl bilan bogʻlangan”ligi bilan izohlash mumkin.

Xotin bir xatida asirda boʻlgan qancha odamlar qaytib kelib tirikchiligini qilib yurganini, hatto asirlikda urushning boshidan boʻlgan kichik togʻasining... avvalgidan ham ishlari rivoj topib, oʻzi salomatlanib (front yarasidan) ketganini erinmasdan yozgan edi (Shuhrat).

Hol birikma-kiritmalar. Hol vazifasidagi kiritmalar koʻpincha kengayib kelgan soʻz birikmalari, koʻmakchili konstruksiyalar bilan ifodalanib, baʼzan ajratilgan boʻlaklarga, ergash gaplarning ayrim turlariga oʻxshab ketadi. Ular, odatda, asosiy gapdagi harakat anglatuvchi boʻlaklar yoki u bilan biror jihatdan bogʻliq gap boʻlaklariga aloqador boʻlib, koʻpincha prepozitiv holda ham qoʻllanadi.

Hol birikma-kiritmalar ish-harakat, holat yoki belgi-xususiyatlarining qanday yuz berishini, sabab, o'rin, payt, maqsad kabi qo'shimcha ma'nolarni ifodalaydi.

Biz nega xursand bo'laylikki (qo'li bilan ko'rsatib) mana – shu, o'tirgan, hozir sizga nutq so'ylagan mulla Abduhakim kamina mulla G'iyos eshonning o'g'li (G'. G'ulom).

Shunday qilib, desangiz, o'rtoq doktor, men bundan olti-yetti yil burun qiqqizil chapani yigit edim, (xotinini ko'rsatib), bu bo'lsa paranjidagi oddiy bir o'zbekning qizi edi (G'. G'ulom).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kiritma konstruksiyalar, birikma-kiritmalar tarzida qo'llana oladi. Frazеologik iboralar yolg'iz holda kiritma vazifasida umuman ishlatilmaydi. Birikma-kiritmalar qo'llanishi va grammatik shakllari, o'rni va funksiyasiga ko'ra o'z ichida turli xil tip va ko'rinishlarga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Фуломов А.Ғ, Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965.
2. Сафаев.А.С. Исследования по синтаксису узбекского языка. Ташкент: Фан, 1968. – Б. 8-11.
3. Тошалийев. И. Киритмаларнинг ажратилган бўлақлар билан муносабати ва улардан фарқи (“ТошДУ илмий асарлари”, 362-чиқиши, “Ўзбек филологияси масалалари”, Тошкент, 1970).
4. Тошалиев. И. Киритмаларнинг нутқ таркибидаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1972. – № 4. – Б. 63–65.
5. Тошалийев. И. Ҳозирги ўзбек адабий тилида киритма конструкциялар. Ўзбекистон ССР, Тошкент: Фан, 1976. – Б. 77-85.
6. Шамсиев.М. Ўзбек тили дарслиги. Грамматика ва имло. II қисм. – Тошкент: Ўздавнашр, 1933.
7. Мирзаев.М, Усмонов.С, Расулов.И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962.
8. Назаров.К. “Киритма гап ва киритма сўз” мавзуси ҳақида (“Ўқитувчилар газетаси”, 1964, 30 май).